

**DIGITAL BUSINESS MANAGEMENT_WEEK_4. USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES
IN PUBLIC PROCUREMENT MANAGEMENT****RAQAMLI BIZNES BOSHQARUVI_4_HAFTA. DAVLAT XARIDLARINI
BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Har bir davlat oldida byudjet sohasi samaradorligini ta'minlash, mablag'lardan maqsadli foydalanishni ta'minlash, byudjet taqsimotida eng samarali tashkiliy-iqtisodiy instrumentlardan foydalanish, g'aznachilik tizimida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, xarid operatsiyalarini doimiy nazorat qilish kabi dolzarb masalalar turadi. Mazkur jarayonlarda samarali davlat xaridlari jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalasi munosib yechim bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasida Davlat xaridi tizimin takomillashtirish bo'yicha chiqarilgan qaror va qonunlar asosida: Davlat xaridlarini elektron shaklda o'tkazishning umumiy qoidalari va shartlari; Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari hamda davlat xaridlarini o'tkazish mezonlari va tartiblarini belgilash; Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion orqali davlat xaridlarini amalga oshirishda tovarlarni yetkazib berish muddatlarini belgilash; Eng yaxshi takliflarni tanlash va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ishtirokchilarning asosiy benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi to'g'risida talab; Hadli kelishuv tartib-taomili orqali davlat xaridlarini amalga oshirish shartlari; To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi; Davlat buyurtmachilari tomonidan tuzilgan davlat xaridlari to'g'risidagi Shartnomalarning yagona reestrini yuritish qoidalari. Bugungi kundagi Xalqaro miqyosda yuzaga kelgan yangi iqtisodiy vaziyat davlat mablag'lari hisobidan xarajatlarni amalga oshirishda hukumatlar oldiga qo'yilgan vazifalarning muhimligini oshirmoqda. Shunday ekan, dunyodagi ko'plab mamlakatlar singari O'zbekiston Respublikasida ham davlat xaridi tizimini isloh etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, Davlat xaridi davlat moliyasi tizimining rivojini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib, bir tomondan byudjet sohasi samaradorligiga, ikkinchi tomondan esa, davlat byudjeti mablag'larining maqsadli natijaviyligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Mazkur vazifa faqat davlatning tashabbusi va faol ishtirokida bajarilishi mumkin, bunda mablag'larini maqsadli boshqarish bo'yicha tegishli tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy va maxsus chora-tadbirlar majmuasi amalga oshiriladi.

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatda Davlat byudjeti islohotlari izchil davom ettirilmoqda. G'aznachilik tizimida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zaruriyati Davlat byudjeti mablag'lari bilan amalga oshiriladigan xarid operatsiyalarining doimiy nazoratini talab qiladi.

Hozirgi kunda mamlakat moliya tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri – g'aznachilik sharoitida Davlat byudjetidan unumli foydalanish hisoblanadi.

Davlat xaridi – bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari evaziga sotib olishdir. O'zbek tilidagi “xarid” termini (procurement – prokyurment) “sotib olish” ma'nosi bilan bir xilda ishlatilib, zamonaviy tushunchalarda mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarni ma'lum haq evaziga olish demakdir. Byudjetni shakllantirishni mezoni sifatida byudjetning imkoniyatlarining yuqori chegarasi olinadi, tovar-moddiy boyliklarga bo'lgan real ehtiyojlarni hisobga olib, xarajatlar uchun mablag'lar ajratiladi. Bugungi kunda davlat xaridini tashkil etishning yangicha tamoyillarga asoslangan tizimini shakllantirishda quyidagi o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud: davlat xaridi tizimini boshqarish bo'yicha me'yoriy-huquqiy baza yetarli darajada rivojlanmagan; byudjet xarajatlarini boshqarish uslubiyotidagi ayrim kamchiliklar mavjud; davlat xaridini amalga oshiruvchi va uni nazoratini ta'minlovchi malakali kadrlarning yetishmasligi; davlat xaridini boshqarishning zamonaviy elektron tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi; kichik va xususiy tadbirkorlikning davlat xaridi tizimida ishtiroki bo'yicha tajribalarning yetishmasligi; davlat xaridini amalga oshirishning mavjud tizimi mamlakatimiz miqiyosida davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun qilinadigan xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermaydi. O'zbekistonda davlat xaridining hajmi YaIMning 11 foizini tashkil etgani holda, uni iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Davlat xaridi YaIMning shakllanishiga to'g'ridan – to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shuni inobatga olib, davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida olib borilgan oqilona siyosat makroiqtisodiy o'sishga jiddiy ta'sir etuvchi instrument sifatida yuzaga chiqadi hamda quyidagilarga erishish mumkin bo'ladi:

- davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali, o'sha sohalar rivojiga va aholi bandligi bilan birga davromadlar darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar hamda xizmatlarni xaridlar jarayoniga jalb qilish orqali raqobatni yanada rivojlantirish;
- sotib olinayotgan tovarlarning sifatini xalqaro talablarga moslash va tenglashtirish orqali, buyurtmachilar tomonidan milliy mahsulot ishlab chiqaruvchilarga bo'lgan ishonchni oshirish;
- tovar (ish, xizmat)lar uchun sarflanayotgan mablag'larning samaradorligini oshirish.

Yuqorida keltirib o'tilgan holatlar mamlakat miqiyosida davlat xaridlarini tashkil etish va boshqarishning samarali mexanizmi mavjud sharoitda, ya'ni xaridni

rejalashtirish va uni iqtisodiyotga ta'sirini baholash orqali erishish mumkin. Davlat xaridlari davlat ehtiyojlari asosida shakllantiriladigan buyurtmalar bo'yicha amalga oshirilib, davlat ehtiyojlari va davlat xaridining predmeti sifatida tovar, ish va xizmatlar tushuniladi. YuNSITRAL tomonidan Yevropa mamlakatlarida davlat xaridini tovarlar, ishlar va xizmatlarga ajratish bo'yicha taklif etilgan tasniflashga asosan:

- tovarlarga xom-ashyo, buyum, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatidagi predmetlar, elektr energiyasi, shuningdek, tovarlarni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar qiymati (agar u tovarning bahosidan yuqori bo'lmasa) kiritiladi;
- ishlar deganda, qurilish, ta'mirlash, bino, inshoot va ob'ektlarni buzish hamda ta'mirlash bilan bog'liq faoliyat turlari, shuningdek, guruntlarni qazish, yangidan qurish, jihozlash, montaj uchun qurilish maydonlarini ta'mirlash va boshqa qurilish ishlari (masalan, geodeziya va burg'ulash bo'yicha ishlar, aero va sun'iy yo'ldosh orqali suratga olish, seysmik tadqiqotlar o'tkazish (agar ushbu xizmatlar bahosi asosiy ish bahosidan yuqori bo'lmasa) tushuniladi;
- xizmatlarga tovar va ishlarga taalluqli bo'lmagan barcha xarid predmetlari kiritiladi.

Davlat moliyasini isloh etish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida davlat xaridini tashkil etishni tubdan isloh etish, uni tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'tgan yillar davomida mamlakatimizda ham davlat xaridlarini rivojlantirish bilan birga, uni tartib solishga doir huquqiy baza shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasidagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlari quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasining qonunlari:
 - 2018 yil 9 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 472-sonli qonun;
 - 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli qonun;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari:
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-sonli qarori;
 - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 456-sonli qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadibirlari tugrisida”gi 302-sonli qarori;
 - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-sonli qaroriga ilova qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risida”gi nizom;
5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida ro‘yxatdan o‘tgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar:
- 2018 yil 26 mayda 3016-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” nizom;
 - 2018 yil 21 mayda 3015-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Maxsus axborot portali operatorining davlat xaridlarini tashkil etish hamda o‘tkazish borasidagi faoliyati to‘g‘risida”gi nizom;
 - 2016 yil 22 dekabrda 2850-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g‘azna ijrosi qoidolari” va boshqa normativ hujjatlar.

Foydalanilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

Foydalanilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

1. Akaev A.A., Kenjabaev A.T., Ilxamova Yo.S., Jumaniyozova M.Yu. Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari. Darslik.T.-“Fan va texnologiya”. 2019.- 510 bet.
2. Kenjabaev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. O‘quv-qo‘llanma.T.-“O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”. 2017.- 408 bet.
3. Lapidus L. Sifrovaya ekonomika. Upravlenie elektronnyim biznesom i elektronnoy kommersiey. Uchebnik. M.: INFRA-M, 2019.- 348 str. <https://www.labirint.ru/books/670196/>.
4. Jason Murphy, “What Woolworths Needs to Do to Fight Back”, News.com.au, July 26, 2016, www.news.com.au/finance/business/retail/is-woolworths-at-risk-of-being-killed-by-german-giants/news-story/32fddb1ca6925658a7e620357a8633a0; C. Wahlquist, “Amazon Expands in Australia and Plans Big Warehouse”, Guardian (London), April 19, 2017.
5. BI Intelligence, “Will the Internet of Things Be Bigger Than the Industrial Revolution?” Business Insider: Innovation, August 17, 2016, www.businessinsider.com/iot-ecosystem-internet-of-things-predictions-and-business-potential-2016-7. Po otsenkam GE, k 2020 g. v mire budet naschityvatsya 50 mlrd podklyu-chennyx k internetu ustroystv.

6.A. Lashinsky, “Why Flex Is Going Beyond Its Manufacturing Roots”, Forbes, October 22, 2015.

7.Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. Post-pandemic perspectives for the development of digitalization in Uzbekistan. International Journal of Management, IT & Engineering Vol. 12 Issue 9, September 2022, ISSN: 2249-0558 Impact Factor: 7.119 Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>, Email: editorijmie@gmail.com Double-Blind Peer Reviewed Refereed Open Access International Journal - Included in the International Serial Directories Indexed & Listed at: Ulrich's Periodicals Directory ©, U.S.A., Open J-Gate as well as in Cabell's Directories of Publishing Opportunities, U.S.A.

8.Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS) Available online at: <http://euroasiapub.org> Vol. 12 Issue 09 September- 2022 ISSN: 2249-7382 Impact Factor: 8.018|.

9. Kenjabaev A.T., Sulonov. Risk management in investment projects. International Journal of Marketing and Technology. Vol. 12 Issue 08, August 2022, ISSN: 2249-1058 Impact Factor: 6.559. Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>, Email: editorijmie@gmail.com. Double-Blind Peer Reviewed Refereed Open Access International Journal - Included in the International Serial Directories Indexed & Listed at: Ulrich's Periodicals Directory ©, U.S.A., Open J-Gate as well as in Cabell's Directories of Publishing Opportunities, U.S.A.

10.Aman Kenjabaev, Azamat Davletyarov, Dilmurod Suyunov. Digitalization of the economy: concepts, problems and implementation strategy. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development Volume 12, Feb., 2023 ISSN (E): 2751-1731 Website: www.sjird.journalspark.org.

11.Aman Kenjabaev, Borikhon Ganikhodzhaev, Dilmurod Suyunov, Akbar Kuvandikov. Development of the digital economy in Uzbekistan and its main directions. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948 Website: www.ajird.journalspark.org Volume 14, March, 2023.